



ICHKИ ISHLAR ORGANLARI SURISHTIRUVCHI VA TERGOVCHILARINING KASBIY-HUQUQIY ONGINING HOLATI.

*IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan
Xamraev Jasur Qudrat o‘g‘li.*

Annotatsiya. Maqolada surishtiruvchi va tergovchilarining kasbiy huquqiy ongini shakllanishidagi muammolarning tahlili ilmiy tahlil qilinib amalga oshirilgan islohotlarning dastlabki tergov tizimining shakllanishidagi ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar. Ilmiy tadqiq qilish, tadqiqot metodlari, dastlabki tergov faoliyati, tergovchi, surishtiruvchi, demografik xususiyatlar, huquqiy tartibga solish.

Аннотация. В статье осуществляется научный анализ проблем формирования профессионально-правового сознания дознавателей и следователей, а также особое внимание уделяется изучению научных исследований, проводимых в рамках реформ, как объекта научного исследования при формировании первоначальной системы расследования.

Ключевые слова. Аучное исследование, методы исследования, начальная следственная деятельность, следователь, дознаватель, demograficheskie xarakteristiki, правовое регулирование.

Annotation. The article provides a scientific analysis of the problems of forming the professional-legal consciousness of investigators and detectives, with special attention given to studying the scientific research conducted within the framework of reforms as the object of scientific research in the formation of the initial investigative system.



Keywords. Scientific research, research methods, initial investigative activities, investigator, detective, demographic characteristics, legal regulation.

Huquqiy ong holati muammosi davlat va huquq nazariyasi fanida o‘rganiladigan asosiy masalalardan biridir. Ushbu masala yuzaidan bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, A.K.Uledov ijtimoiy ong bir butun sifatida va o‘zining individual ko‘rinishlarida doimo nimanidir boshdan kechiradi, ya’ni ma’lum bir holatni namoyon bo‘ladi deb hisoblagan. Unga ko‘ra odamlar faoliyatiga alohida siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa g‘oyalar va qarashlar emas, balki ularning uyg‘unligi bevosita ta’sir ko‘rsatadi¹. Shunday mazmundagi qarashlardan bir, X.T.Odilqoriev tomonidan bildirilgan. Uning fikricha huquqiy ong deganda, kishilarning huquq haqidagi tushuncha va bilimlarga ega bo‘lishi, shuningdek huquq borasidagi tasavurlarning inson ongida aks etishi tushunilib, ijtimoiy ongning shakillaridan biridir. Demak, hayotning sohalari g‘oyat xilma-xil bo‘lib, ularning xar biri jamiyat ijtimoiy ongida diniy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa aniq shakillarida namoyon bo‘ladi².

Ushbu masala bilan chambar-chas bog‘liq gipoteza Ichki ishlar organlari surishtiruvchi va tergovchilarining kasbiy-huquqiy ongi holatini o‘rganish xisoblanadi. Ularning kasbiy huquqiy ongi holatining nazariy jihatini birinchi marta P. P. Baranov tomonidan taqdim etilgan va bu muammoni hal qilishda yondashuvlarning ko‘pligiga e’tibor qaratildi³. Shunga qaramay Ichki ishlar organlari surishtiruvchi va tergovchilarining kasbiy huquqiy ongining holati (alohida individual ko‘rinishda yoki ommaviy ko‘rinishda) yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu masalaga tegishli bir qancha ma’lumotlar qoida tariqasida mavjud bo‘lsada, umumlashtirilmagan. Ushbu ma’lumotlarni bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida, IIOning idoraviy xujatlari: hisobotlar, xizmat

¹Uledov A.K. // Jamoat ongining tuzilishi. Moskva 1968 yil. 256 – 257 bet.

²X.T.Odilqoriev // Davlat va huquq nazariyasi // darslik: Adolat-2021 yil 273-bet.



tekshiruvlarida, prokuratura organlariga tegishli xujjatlarda, jinoyat ishlari va sudning hukm yoki ajrimlarida ko‘rishimiz mukin.

Bizningcha, agar huquqiy ongning asosiy tuzilmasini tashkil etuvchi asosiy elementlarning holatini tavsiflovchi ma’lumotlarga, tergov faoliyatining xususiyatlari, shuningdek, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslanilsa tergov faoliyati xodimlarining kasbiy huquqiy ongining holati to‘g‘risida etarlicha, to‘liq, tizimlashgan va ob’ektiv fikrlarni shakllantirish mumkin. Bu holda nazariy va amaliy qiymatdagi quyidagi ma’lumotlarni quydagicha tizmizlashadi:

- O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti va uning quyi tizilarida xizmat olib borayotgan surishtiruvchi tergovchilarining xizmatga oid umumiyligi tavsifi;
- Tergov faoliyati xodimlarining Ichki ishlar organi xodimi sifatida huquqiy savodxonligining sifati;
- Tergov faoliyati xodimlarining mavjud yuridik institutlarga bo‘lgan munosabati;
- Surishtiruvchi va tergovchilarining huquqiy dunyoqarashining mazmuni.

Ushbu tadqiqotning ilmiy o‘rganish maqsadiga muvofiq IIV Tergov boshqarmasi va uning quyi tizimlarida xizmat olib borayotgan tergov faoliyati xodimlarining 2018-2023 yillardagi ijtimoiy-demografik xususiyatlarini tahlil qilish lozim. Tadqiqot davomida 400 ga yaqin surishtiruvchi va tergovchila bilan ijtimoiy so‘rov o‘tkaziladi. Bu O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti va uning quyi tizilarida xizmat olib borayotgan surishtiruvchi tergovchilar umumiyligi sonining salmoqli qismini tashkil etdi. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar bizga quyidagi xususiyatlarni qayd etish imkonini beradi.

Surishtiruvchi va tergovchilarining sodir etilgan va tergov qilingan jinoyatlar soniga nisbatan ish yuklamasi katta ekanligiga qaramay, surishtiruvchi yoki



tergovchi kasbini keng tarqalgan kasb deb e'tirof etib bo'lmaydi. Chunki ushbu ma'suliyatli kasb bo'yicha qo'yiladigan talablar shunchalik kattaki, tizimni kadrlar bilan ta'minlash, tanlash va joylashtirishda qiyinchiliklar mavjud.

Amaldagi qonunchilik xujjatlari va surishtiruvchi va tergovchi lavozimining masuliyatini inobatga olgan holda ushbu lavozimga faqat oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigina tayinlanadi.

Ichki ishlari organlarii tergov faoliyati uchun oliy ma'lumotli huquqshunos kadrlarni tayyorlash O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining 2004 yil 19 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlari organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni va uning asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 23-sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlari idoralariga mutaxassislar tayyorlovini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi qarori bilan IIV Akademiyasida “Tergov faoliyati” mutaxasisligi bo'yicha yo'lga qo'yildi⁴. Vaholanki, Toshkent shaxar IIBB Tergov boshqarmasi va uning quyi bo'limlarida xizmat olib borayotgan surishtiruvchi va tergovchilarining 66 foizi IIV Akademiyasi yohud HMQOlarning ta'lim muassasalarini tugatgan. Qolgan qismi esa fuqarolik ta'lim muassasalarini tahsil olgan. Ushbu omil Ichki ishlari organlari surishtiruvchi va tergovchilarining kasbiy-huquqiy onging holati to'g'risida umumiyl tushuncha yuzaga kelishiga alohida omil bo'ladi.

Ichki ishlari organlari surishtiruvchi va tergovchilarining kasbiy huquqiy ongiga ta'sir qiluvchi kadrlar bilan ta'minlash bilan bog'liq yana bir omil ularning yoshi yoki ish staji bilan bog'liq ko'rsatgichlardir. Yoshi bo'yicha organlarning tergov bo'linmalarining tergovchilari Ichki ishlari organlari xodimlarining aksariyati qirq yoshdan oshmagan. Misol uchun, tadqiqot davomida Toshkent shaxar IIBB Tergov boshqarmasi va uning quyi bo'limlarida xizmat olib borayotgan surishtiruvchi va tergovchilarining o'rtacha yoshi yoshni, xizmatdagi

⁴ “IIV Akademiyasi tarixi” IIV Akademiyasi-2018 y



ish tajribasi muddatiga, e'tibor qaratiladi. Bundan kelib chiqadi yosh pasayishi tendensiyasi xam kasbiy-huquqiy ong shakillanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, taqdim etilgan ma'lumotlar bugungi kunda surishtiruvchi yoki tergovchi kasbining ayrim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Xususan: uning past tarqalganligi, yuqori ijtimoiy ahamiyatga egaligi, tergovchilarining ma'naviy va tashkiliy fazilatlariga qo'yiladigan yuqori talablar, tergov faoliyatining murakkabligi va intensivligi.

Bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi surishtiruvchi va tergovchilarining yurisdiksiyasiga umumiyl jinoyat ishlarning askariya qismi (taxminan 75 foizini) bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi⁵. Ma'lumot uchun 2023-yilda mamlakatda 104 096 ta jinoyat ro'yxatga olingan bo'lib⁶ shundan uning salmoqli qismni ichki ishlar organlari surishtiruvchi va tergovchilar tomonidan tergov xarakatlari amalga oshirilgan. Ushbu raqamlar tergovchi va surishtiruvchilarining ish yuklamasi va kadrlarni lavozimga tayinlash maslasi dolzar ekanligidan dalolat beradi.

Tergov amaliyotida tergovchilarining protsessual mustaqilligini cheklash tendentsiyasi sezilarli darajada kuzatiladi. Jinoyat-protsessual kodeksiga asosan, surishtiruvchi va tergovchilar o'z ish yurituviga qabul qilingan ishlar bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish to'g'risida yozma topshiriqlar berish huquqiga ega.⁷ Ammo xizmat bo'yicha surishtiruvchi va tergovchilar ichki ishlar bo'limi boshlig'iga bo'ysunadi. Bundan kelib chiqadiki jinoyat protsessual qonunining surishtiruvchi tergovchining vakolati to'g'risidagi qonun talablari amalda bajarilishiga to'siqlar mavjud.

Shuni xam ta'kidlash joizki tizimdagi surishtiruvchi va tergovchilarga Ichki ishlar organi boshlig'i va uning o'rinnbosaridan tashqari tergov bo'limi boshlig'i va prokuror tomonidan nazorat qilinadi. Qonun chiqaruvchi tomonidan ularning

⁵O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi // Toshkent-2023. 248 – 250 bet.

⁶ <https://senat.uz/oz/events/post-1844>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi // Toshkent-2023. 19 – 22 bet.



raxbarlik qilishi amaldagi jinoyat protsessual kodeksi bilan mustahkamlangan. Masalan, prokurorning shaxsni ayblanuvchi sifatida jalb qilish, jinoyatning kvalifikatsiyasi va ayblov va ayblanuvchilar doirasi, ishni sudga chiqarish yoki jinoyat ishini tugatish masalalari hal qilish bo‘yicha protsessual vakolatlari mavjud. Bunday holatda surishtiruvchi va tergovchilar o‘z ish yurituvadagi jinoyat ishlari bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda qarshilik bildirishi mukin. Ammo amalda, shaxsiy tajribamva sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra shuni ko‘rsatadiki, Ichki ishlar organlarining surishtiruvchi va tergovchilari prokurorga e’tiroz bildirishga jur’at etolmaydilar. Bunday holatda, surishtiruvchi va tergovchilari o‘zini prokuror yordamchisi kabi uning fikrini ma’qullashni lozim topadi.

Ichki ishlar organlari rahbariyatiga tashkiliy jihatdan bo‘ysungan holda (bunday bo‘ysunish IIOlari bilan ma’lum psixologik va ideologik birlikni nazarda tutadi), tergov faoliyati xodimlari tashqi tomondan huquqni muxofaza qilish faoliyatida yakkaboshchilik prinsipi sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, surishtiruvchi va tergovchilar boshqa ichki ishlar organlari xodimlari kabi maxsus atributlarga ega bo‘lgan formali kiyim-bosh kiyib yuruvchi, maxsus vakolat va imtiyozlaridan foydalanish bilan bir paytda ichki ishlar organlarining zimmasiga qo‘yilgan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashdan, shuningdek huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasini amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan⁸. Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun tergov faoliyati xodimlari hududiy IIO rahbariyatiga bo‘ysunishi shart. Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabr kunidagi 407-sonli “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” gi qonuni va boshqa bir nechta qonun osti hujjatlari bilan mustahkamlangan.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 21.09.2024 y., 03/24/963/0735-son



Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Ichki ishlar organlari surishtiruvchi va tergovchilari faoliyati asosini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi tashkil etib, ularning jinoyat-protsessual qonunidagi vazifalari jinoyatlarni tez va to‘la ochishdan, jinoyat sodir etgan xar bir shaxsgaadolatli jazo berilishi xamda, aybi bo‘lmagan xech bir shaxs javobgarlikga tortilmasligiga hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan xamda qonunining to‘g‘ri tadbiq etilishini tamminlashdan iborat.



Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi; T;O‘zbekiston - 2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Jnoyat-protsessal kodeksi. T; Adolat - 2023
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 aprel kuni “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi klinikagi PQ-2898-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-noyabr kuni “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”dagi PF-257-son farmoni.
5. X.T.Odilqoriev// Davlat va huquq nazariyasi darslik: Adolat-2021 yil.
6. Аверченко А.К., Серов Д.О // Организация следственного аппарата России: история и современность. // Вестник 2006 йил.
7. IIV Akademiyasi tarixi” IIV Akademiyasi-2018 y
8. <http://lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi) sayti